



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70230101 – Lingvistika (ingliz tili)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**


70230101 – Lingvistika (ingliz tili)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ERGASHEVA GULI ISMOIL QIZI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: ANTHONY JOHN LIDDICOAT

University of Warwick

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260048
Xulosa raqami	878
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Q.Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Guvohnoma: MAS № 0000249, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Lingvistika (ingliz tili)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70230101
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000249, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70230101 – Lingvistika (ingliz tili)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70230101 – Linguistics: English
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70230101 – Лингвистика (английский язык)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tilshunos. Pedagog-tadqiqotchi (ingliz tili)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Q.Niyoziy ko'chasi, 39-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan tashkiliy-huquqiy hujjatlar, boshqaruv tizimiga oid materiallar hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlariga doir ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida mazkur ta'lim dasturini boshqarish, rivojlantirish va sifatini ta'minlash uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgani hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi boshqaruv tizimi joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirishda ichki sifatni monitoring qilish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam o'rganish va ularning natijalarini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy mexanizmlar yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Lingvistika magistraturasi ilmiy yo'nalishga ega mutaxassislik sifatida magistrantlarning ilmiy izlanishlarini muvofiqlashtirish, tadqiqot yo'nalishlarini rejalashtirish va ilmiy faoliyatni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi ta'lim sifati hamda ilmiy natijadorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Ta'lim dasturini istiqbolda rivojlantirish bo'yicha rejaning ishlab chiqilgani uning barqaror takomillashuviga xizmat qilishi qayd etildi. Taqdim etilgan dalillar mazkur yo'nalish bo'yicha boshqaruv tizimi belgilangan mezonlar asosida tashkil etilganini tasdiqlaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, o'quv reja, fan dasturlari, malaka talablari hamda o'quv-uslubiy hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida ishlab chiqilgani hamda uning mazmuni zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari, o'quv

rejaning tarkibiy qismlari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular magistrantlarning kasbiy, ilmiy va tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Lingvistika magistraturasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda nazariy tilshunoslik bilimlarini amaliy til tahlili, lingvistik tadqiqot metodlari hamda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida qayd etildi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Tilshunos. Pedagog-tadqiqotchi (ingliz tili)" kvalifikatsiyasi berilishi nazarda tutilgan. Mazkur ta'lim dasturi magistrantlarda belgilangan kasbiy va ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur mazmuniy asoslarni to'liq qamrab oladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan o'quv rejalari, fan sillabuslari, baholash mezonlari hamda o'quv jarayonini tashkil etishga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq shakllantirilgani, ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur tashkiliy va metodik asoslar yaratilgani aniqlandi. O'quv rejalari, fan sillabuslari va baholash tizimi kredit-modul tizimi tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan uzviy bog'langan. Lingvistika magistraturasining ilmiy yo'nalganligini hisobga olib, korpus lingvistikasi, real til materiallarini tahlil qilish va ilmiy-tadqiqot seminarlariga alohida e'tibor qaratilgani magistrantlarning ilmiy va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida qayd etildi. Shuningdek, akademik halollik tamoyillarini ta'minlash hamda baholash jarayonining shaffofligini kafolatlovchi tartiblar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Mavjud o'quv jarayoni va baholash tizimi magistrantlarning belgilangan o'quv natijalariga erishishini ta'minlash imkonini beradi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida talabalarni qabul qilish, talabalar harakatini boshqarish, murojaatlarni ko'rib chiqish hamda magistrantlarni qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida universitetda mazkur jarayonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani va amaliyotga samarali joriy etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari hamda talablar manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilishi, talabalar harakati bilan

bog'liq barcha jarayonlarning belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi hamda magistrantlarning akademik huquq va manfaatlarini ta'minlash mexanizmlari mavjudligi qayd etildi. Talabalar va magistrantlarning murojaatlarini qabul qilish, ularni ko'rib chiqish hamda belgilangan tartibda hal etish tizimining alohida tartibga solingani ta'lim jarayonining ochiqligi va boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Shuningdek, magistrantlarni akademik, ilmiy va maslahat jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani ta'lim dasturining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilishi aniqlandi. Mavjud tartib va mexanizmlar magistrantlarning akademik huquqlari hamda ta'lim olish imkoniyatlarini to'liq ta'minlashga xizmat qiladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida inson resurslarini boshqarish, professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish hamda ularning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslari tizimi shakllantirilgani, professor-o'qituvchilarni tanlash, ularning malakasini muntazam oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari izchil yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Lingvistika magistraturasining ilmiy yo'nalganligini hisobga olib, professor-o'qituvchilarning ilmiy nashrlar faolligi, zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarida olib borayotgan tadqiqotlari hamda magistrantlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish salohiyati ta'lim dasturining natijadorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturining maqsad va vazifalarini sifatli amalga oshirish uchun yetarli imkoniyat yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim infratuzilmasiga oid hujjatlar va mavjud shart-sharoitlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur zamonaviy infratuzilma shakllantirilgani, auditoriyalar, kompyuter xonalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, elektron kutubxona hamda raqamli ta'lim resurslari o'quv jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashi aniqlandi. Shuningdek, HEMIS axborot tizimi va boshqa raqamli platformalar orqali ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlari amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Shu bilan

birga, inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha binolar va jihozlarning moslashtirilishi, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq 6.4-mezon yuzasidan ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishda moddiy-texnik sharoitlarni yanada takomillashtirish, shuningdek, lingvistika magistraturasi uchun til korpuslari va xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq deb topildi. Taqdim etilgan dalillar 6-bob bo'yicha belgilangan talablarning bajarilganini tasdiqlaydi, 6.4-mezon yuzasidan esa takomillashtirish zarurati mavjud.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Til korpuslari va xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Til korpuslari va xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirishni kengaytirish.
- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Magistrantlar va professor-o'qituvchilarning ilmiy nashr faolligini oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 70230101 – "Lingvistika (ingliz tili)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlash uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgani, ichki sifat monitoringi, manfaatdor

tomonlar bilan hamkorlik hamda mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmlari amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi tamoyillari asosida tashkil etilgan, baholash mezonlari hamda akademik halollikni ta'minlash tartiblari joriy etilgan. Talabalarni qabul qilish, ularning akademik harakatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilgan. Professor-o'qituvchilarning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirish, malaka oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha samarali mexanizmlar mavjud. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur auditoriyalar, kompyuter xonalari, AKT vositalari, elektron kutubxona, HEMIS axborot tizimi va boshqa raqamli ta'lim resurslari shakllantirilgan. Shu bilan birga, moddiy-texnik ta'minot yo'nalishida inklyuziv ta'limni tashkil etishga oid 6.4-mezon bo'yicha ayrim kamchiliklar aniqlanib, mazkur indikator qisman muvofiq deb baholandi hamda uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berildi. Aniqlangan kamchiliklar tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

